

ONA TILI TA'LIMIDA IJTIMOY FANLAR BILAN INTEGRATIV ALOQADORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Akramjonova Gulandom Ibrohimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ona tili ta'limi jarayonida ijtimoiy fanlar bilan integratsiyani amalga oshirishning nazariy-metodik asoslari hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari yoritilib, ona tili mazmunini tarix, adabiyot, geografiya va ma'naviyat asoslari kabi fanlar bilan uyg'un holda tashkil etishning o'quvchilarning har tomonlama kamol topishidagi ahamiyati ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar. *ona tili ta'limi, fanlararo integratsiya, ijtimoiy fanlar, uzviy aloqadorlik, metodik yondashuv, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, tahliliy tafakkur nazariyasi.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы теоретико-методические основы и практические аспекты интеграции социальных наук в процесс преподавания родного языка. В исследовании раскрываются дидактические возможности интегративного подхода, а также научно обосновывается значение гармоничного сочетания содержания обучения родному языку с такими дисциплинами, как история, литература, география и основы духовности, в процессе всестороннего развития личности учащегося.*

Ключевые слова. *обучение родному языку, межпредметная интеграция, социальные науки, взаимосвязь, методический подход, интерактивные методы, компетентностный подход, теория аналитического мышления.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations as well as the practical aspects of integrating social sciences into the process of mother tongue teaching. The study highlights the didactic possibilities of an integrative approach and scientifically substantiates the importance of harmonizing mother tongue education with subjects such as history, literature, geography, and fundamentals of spirituality in fostering the comprehensive development of students' personalities.*

Keywords. *mother tongue education, interdisciplinary integration, social sciences, interconnection, methodological approach, interactive methods, competency-based approach, theory of analytical thinking.*

Kirish. “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani falsafa, tilshunoslik siklidagi fanlar, didaktika, tarix bilan uzviy bog‘liqdir.[1] Demak, maktabda «Ona tili» o‘quv fanidan dars beriladigan yetuk mutaxassis bo‘lishi uchun u shu fanlarni qiyoslab o‘rganishi lozim. “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanining falsafa bilan aloqadorligi. “Ona tili o‘qitish metodikasi” xususiy pedagogik sikldagi fan bo‘lganligi uchun ham, ijtimoiy fanlar guruhiga kiradi va ijtimoiy fanlarning asosini tashkil etadigan falsafa bilan chambarchas bog‘langan.[2] Ushbu fanning falsafa bilan aloqadorligi ona tilining maqsad va vazifalarini tushunishingizga, bu fanning ta‘lim mazmunini to‘g‘ri belgilashingizga, o‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri uyushtirishingizga, o‘qitishning eng samarali metod, vosita va usullarini tanlashingizga, faoliyat mahsulini nazorat qilishingiz va qiyosiy o‘rganish uchun amaliy yordam beradi. O‘quvchiga o‘z ona tilini o‘rgatish tafakkur bilan chambarchas bog‘langan. Chunki til hodisalarining o‘quvchi ongida voqealanishi tafakkur orqali yuzaga chiqadi. Til tafakkurning aloqadorligi ona tili o‘qitish metodikasi darslarida ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash muammosini hal qilishga ko‘maklashadi.

Ma‘lumki, falsafada har bir umumiy nazariya yakka, juziy tushunchalar yig‘indisidan tashkil topadi, degan qoida mavjud. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi faoliyatini tashkil etishda ham biz xuddi shu qoidaga asoslanamiz. Muayyan bo‘laklarga ajratilgan til hodisalarini kuzatish metodi, ularning birini ikkinchisi bilan taqqoslash metodi orqali o‘quvchi umumiy ta‘rif, qoida va xulosalarga keladi.

Falsafa fikrlash va rivojlanishni o‘zaro uyg‘unlikda qaraydi. [3] Sharqning buyuk olimlari (Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Umar Hayyom, Abu Ali ibn Sino) rivojlantirishni fikrlashning mahsuli deb biladilar. Masalan, Umar Hayyom o‘zining “Matematik traktatlari” asarida shunday yozadi:

“Ozgina o‘yla, o‘zing topasan”,

“Ozgina fikrla, bilib olasan”

singari xitoblari orqali ma‘lumdan noma‘lumga borish g‘oyasini ilgari surgan. Til materiallari o‘quvchi tomonidan ijodiy fikrlash orqali egallangan bo‘lsa, u amaliy ahamiyatga molik bilim, ko‘nikma va malakalar sanaladi. Shuni unutmash lozimki, til hodisalarining mohiyatini anglash, ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash, til imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanish singari zaruriy malakalar ijodiy fikrlash orqali ro‘yobga chiqadi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” fanining tilshunoslik fanlari bilan aloqasi. “Ona tili o‘qitish metodikasi” garchand pedagogik sikldagi fan sanalsa-da, ammo uning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil etadi.[4] Tilshunoslik ilmi sohasida qo‘lga kiritilgan har bir ilmiy yutuq, shubhasiz, maktab ona tili ta‘limining mazmuniga ta‘sir [i]ko‘rsatadi: zaruriyat tug‘ilganda uni yangilash yuzaga keltiradi. Ayni vaqtda shuni ham unutmash lozimki,

tilshunoslikda fan erishgan barcha yutuqlarni umumiy o‘rta maktab o‘quvchisiga o‘rgatishning iloji yo‘q hamda bunga extiyoj ham sezilmaydi. Modomiki, shunday ekan, “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani ana shu til ilmi sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan nimani ajratib olib o‘quvchiga o‘qitish lozimligini ham hal qiladi.

Asosiy qism. Maktabda ona tili fani o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan zaruriy ma’lumotlarni o‘quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasiga mos ravishda ularga yetkazishga xizmat qiladi. Til bir butun tizim bo‘lganligi sababli, maktab ona tili fanining bir bo‘limi ikkinchisi bilan chambarchas bog‘langan. Chunonchi, tilning tovush tizimi o‘rganilar ekan, ayni vaqtda so‘z va uning ma’nolari, gapda so‘zlarning aloqaga kirishi xususida ham ma’lumot beriladi. Leksika va grammatika bo‘limlari o‘rganilar ekan, fonetikadan berilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanib ish ko‘riladi.

Maktab ona tili ta’limi nafaqat “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursi, balki umumiy tilshunoslik, til tarixi, shevashunoslik singari fanlar bilan ham aloqador. Til tarixidan xabardor o‘qituvchi mumtoz adabiy asarlarning til xususiyatlari ustida ishlay oladi, dialektologiyani bilgan o‘qituvchi esa adabiy til bilan shevani qiyoslab, nutqdagi dialektal xatolarning olidini olishi yoki bartaraf etishi mumkin.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” fani nutq madaniyati bilan ham aloqador. Zero nutq madaniyati asoslarini puxta bilgan o‘qituvchilar o‘quvchi nutqi ustida samarali ishlay oladi. “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani ifodali o‘qish praktikumi va adabiyotshunoslik nazariyasi fanlari bilan ham bog‘liqdir.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” fanining didaktika bilan aloqasi.[5] Ma’lumki, ta’lim jarayonining umumiy va xususiy tomonlari bor. Ta’limning umumiy tomonini umumiy didaktika, xususiy tomonini xususiy didaktika o‘rganadi. Umumiy didaktika o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro ta’sirini o‘rganadi va u barcha o‘quv fanlari uchun aloqadordir. “Ona tili o‘qitish metodikasi” umumiy didaktika bo‘yicha o‘rganilganlarni oydinlashtiradi: ya’ni umumiy va xususiy didaktikadan o‘rganilgan ta’lim maqsadi qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarning ona tilini o‘qitish jarayonida voqealanishini aniqlaydi “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani didaktikasiga tayanib ish ko‘radi. Chunonchi, ona tili o‘qitish tamoyillari yoki metodlari xususida fikr yuritilar ekan, avvalo umumdidaktik prinsiplar va metodlar, keyin xususiy prinsiplar va metodlarga to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” fanining psixologiya bilan aloqasi. Ta’limni tashkil etish, o‘qitish bola psixologiyasi bilan chambarchas bog‘langan.[6] Bu aloqadorlik avvalo o‘quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq. O‘rganilgan til hodisalarini qiyoslash yoki ularni o‘xshash va farqli tomonlariga qarab guruhlash, umumlashtirish, hukm va xulosalar chiqarish shaxsning aqliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, xotira, tafakkur, xayol

singari individual psixik xususiyatlarga tayanadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning shaxsiy psixik xususiyatlarini bilishi va unga tayanib ish ko‘rishi lozim. Akademik Pavlovning assosatsiyasi (aloqa bog‘lanish) haqidagi ta‘limoti ona tili ta‘limida muhim o‘rin egallaydi. Agar til hodisalari orasidagi aloqadorlikka asoslanilmasa, o‘quvchi tilni bir butun sistema sifatida qabul qila olmaydi. Yangi o‘quv materialni oldin o‘rganilganlar bilan bog‘lash bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo‘llash imkoniyatini beradi. Bu esa ijodiy faoliyat ko‘rsatish uchun asosdir.[7]

Hozirgi zamon psixologiyasi bilim olishda ehtiyojni zaruriyat deb biladi. Bu ta‘limot ona tili mashg‘ulotlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi o‘z so‘z zaxirasini oshirishga, so‘zdan foydalanishga, har xil nutqiy vaziyatlarga ehtiyoj sezmasa, tilni o‘rganishga qiziqmaydi, unga zaruriyat sezmaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan shaxsning o‘z ona tilini bilishi uni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tevarak-atrofdagi kishilar bilan muloqot, dars jarayonida tuzilgan og‘zaki va yozma matnlar, o‘tkaziladigan savol-javoblar rivojlanishni ta‘minlovchi omillardir.

Ona tili ta‘limining hozirgi bosqichida test topshiriqlariga talab oshgan bir davrda o‘quvchilarda kompyuter bilan ishlash psixologiyasini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu dars mashg‘ulotlarida kompyuter xizmatidan uzluksiz foydalanish orqali qo‘lga kiritiladi. Ma‘lumki, ehtiyojlar insonni ma‘lum yo‘nalishda ongli ravishda harakat qilishga undaydi. Bundan asosiy maqsad odamlar bilan hamkorlik qilishi, muloqotga kirishishi bo‘lib sanaladi. Muloqot vaziyatida inson til, imo-ishora, yuz ifodasi, qo‘l harakatlari va muayyan ramziy belgilar vositasida boshqa odamlar bilan aloqa o‘rnatadi. Bu vositalardan kerakligini tanlab olish “Psixologiya” fanining ham, “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanining ham vazifasidir.[8]

Xulosa. “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani — bu faqat tilni o‘rgatish vositasi emas, balki inson tafakkuri, ma‘naviy dunyosi va shaxsiy rivojlanishining murakkab tizimini shakllantiruvchi ilmiy-nazariy yo‘nalishdir. Ushbu fan falsafa, tilshunoslik, didaktika va psixologiya kabi fanlar bilan uzviy aloqada bo‘lib, har birining nazariy asoslarini o‘z metodikasiga singdirgan. Falsafa bilan bog‘liqligi tufayli “Ona tili o‘qitish metodikasi” o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini ongli, mantiqiy va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi. Falsafiy tafakkur tildagi hodisalarni anglash, umumiylikdan yakka misollarga, ma‘lumdan noma‘lumga o‘tish jarayonida o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi. Shuningdek, Sharq allomalari — Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyomlarning “fikr yuritish – rivojlanish manbai” haqidagi qarashlari bugungi kunda ham til ta‘limining metodik asosini mustahkamlaydi. Tilshunoslik bilan aloqadorligi esa bu fanning ilmiy poydevorini tashkil etadi. Chunki har bir tilshunoslik yutug‘i, fonetika, leksika va grammatika sohasidagi yangiliklar, ona tili o‘qitish mazmuniga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Metodika bu yutuqlardan o‘quvchining yoshiga, qobiliyatiga va psixologik xususiyatlariga

mosini tanlab, o‘quv jarayoniga tatbiq etadi. Bu orqali o‘quvchida amaliy nutq ko‘nikmalari, til sezgisi, tahliliy tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi.[9]

Didaktika bilan uzviy aloqadorlik ta’lim jarayonining umumiy va xususiy tomonlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. “Ona tili o‘qitish metodikasi” umumdidaktik tamoyillar — maqsad, mazmun, metod, vosita va tashkiliy shakllarni o‘z sohasi doirasida aniq, amaliy shaklda ifodalaydi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘qituvchi uchun metodik asos, o‘quvchi uchun esa o‘quv jarayonini ongli idrok etish imkoniyatini yaratadi. Psixologiya bilan aloqadorlik esa ona tili o‘qitish jarayonida o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, tafakkur darajasi, xotira, diqqat, tasavvur va hissiyotlarining inobatga olinishini ta’minlaydi. Har bir o‘quvchining ruhiy ehtiyojini bilgan holda, unga mos metodni tanlash, tildagi hodisalarni ongli idrok ettirish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish — bu metodikaning asosiy vazifasidir. Pavlovning assotsiatsiya nazariyasiga tayangan holda, yangi bilimni avvalgi o‘rganilgan ma’lumotlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchida ijodiy faoliyat va mustahkam nutq malakalari shakllanadi. Shunday qilib, “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani kompleks, integrativ tabiatga ega bo‘lib, nafaqat lingvistik bilimlarni, balki falsafiy tafakkur, psixologik idrok, didaktik mahorat va pedagogik maqsadni uyg‘un holda mujassamlashtiradi. Bu fan o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, muloqot madaniyatiga ega, o‘z fikrini aniq ifoda eta oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.[10]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Nurmonov. A. Sobirov D va boshqalar. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. " Tasvir " nashriyot uyi. Toshkent: 2017.
2. Muhitdinova H. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. - Toshkent, 2011.
3. Sattorova N. O'quvchilarning insho yozish malakalarini shakllantirish. P.f.n. diss. - Toshkent: 1995.
4. B. G'ulomov, B. Qobulova Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Toshkent. 1995.
5. N. Mahmudov Ta'lim bo 'g'inlarida ona tili o'qitish mazmunini yangilash muammolari. Qarshi. 1993.
6. R. Safarova Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktika asoslari. Toshkent. 1995.
7. G‘ulomov A., G‘anieva R. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan, 2018.
8. Yo‘ldoshev M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
9. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2016.

10. G‘ulomov A. Tilshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020.
11. Mavlonova R. Pedagogika va didaktika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
12. Xudoyberdiyeva N. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
13. Pavlov I.P. *Izbrannue proizvedeniya*. – Moskva: Nauka, 1951.
14. Yo‘ldosheva D. *Psixolingvistika nazariyasi*. – Toshkent: Fan, 2021.
15. Zunnunov A. *Til va tafakkur metodikasi*. – Toshkent: Universitet, 2019.
16. Qodirova N. *Nutq madaniyati va til ta’limi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.